





Andijon viloyati statistika boshqarmasiga 2019 yil yanvar-iyul oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahlili




Andijon viloyat statistika boshqarmasiga 2019 yil yanvar-iyul oylarida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari jami 99 tani tashkil etib. Shundan yuridik shaxslardan jami 92.9 ta bo'lib, jamiga nisbatan 95.0 foizni, jismoniy shaxslardan 7.1 ta jamiga nisbatan 5.0 foizni, boshqarma boshlig'i hamda o'rinbosarlarning sayyor qabuli davomida jami murojaatlar 47 tani jamiga nisbatan 47.5 foizni, boshqarma ishonch telefoniga kelib tushgan murojaatlar 6 tani jamiga nisbatan 6.1 foizni, boshqarma boshlig'i hamda o'rinbosarlarning shaxsiy qabulda murojaatlari soni 2 tani jamiga nisbatan 2.0 foizni tashkil etdi. Kelib tushgan barcha murojaatlarning ijrosi ma'sul shaxslar va ijrochilar tomonidan o'z vaqtida bajarildi.

Andijon viloyati statistika boshqarmasiga 2019 yil yanvar-iyul oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni oylar bo'yicha tahlili



Andijon viloyat statistika boshqarmasiga 2019 yil yanvar-iyul oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan jami murojaatlar soni 99 tani tashkil etib, shundan yanvar oyida 12 ta murojaat, jamiga nisbatan 12.1 foizni, fevral oyida jami 10 ta murojaat kelib tushgan, jamiga nisbatan 10.1 foizni, mart oyida jami 37 ta murojaat kelib tushgan jamiga nisbatan 37.4 foizni, aprel oyida 14 ta murojaat kelib tushgan, jamiga nisbatan 14.1 foizni, may oyida esa jami murojaatlar soni 2 ta bo'lib jamiga nisbatan 2,0 foizni, iyun oyida murojaatlar soni 8 ta bo'lib, jamiga nisbatan 8.1 foizni, iyul oyida murojaatlar soni 16 ta bo'lib, jamiga nisbatan 16.2 foizni tashkil etdi. Kelib tushgan barcha murojaatlar o'z vaqtida ijrochilarga yetkazildi hamda ijro uchun ma'sul shaxslar tomonidan o'z vaqtida, belgilangan muddatlarda ijrolari ta'minlanib murojaatchilarga yetkazildi.


Andijon viloyati statistika boshqarmasiga 2019 yil yanvar-iyul oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tahlili



2019 yil yanvar-iyul oylarida kelib tushgan murojaatlarning jamiga nisbatan foizda


- Yuridik shaxslar murojaatlari
- Sayyor qabulda murojaatlar
- Shaxsiy qabul murojaatlari
- Jismoniy shaxslar murojaatlari
- Ishoncn telefoniga murojaatlar

2019 yil yanvar-iyul oylarida kelib tushgan murojaatlarining mazmuni bo'yicha tahlili (foizda)



- Davlat statistika hisobotlarini taqdim etish muddatlari hamda turlari to'g'risida murojaatlar
- Xo'jalik yurituvchi subyektlar, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati va soni to'g'risida ma'lumotlar haqidagi murojaatlar
- Viloyatda ishchi xodimlarni o'rtacha ish xaqi to'g'risida murojaatlar
- IFUT xos raqam berilishi to'g'risida amaliy yordam so'rab
- Hisobotidan nusxa so'rab

Andijon viloyati statistika boshqarmasiga 2019 yil yanvar-iyul oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning shaxar va tumanlar bo'yicha tahlili



■ Andijon sh ■ Xonobod sh ■ Andijon t ■ Asaka t ■ Buloqboshi t ■ Bo'z t
■ Baliqchi t ■ Jalaquduq t ■ Izboskan t ■ Oltinko'l t ■ Qo'rg'ontepa t
■ Marxamat t ■ Ulug'nor t ■ Paxtaobod t ■ Xo'jaobod t ■ Shaxrixon t
■ Boshqalar

Andijon viloyati statistika boshqarmasiga 2019 yil yanvar-iyul oylarida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarning shaxar va tuman kesimi bo'yicha tahlil qilinganda jami 99 ta murojaat kelib tushgan. Shundan Andijon shaxridan 47 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, jamiga nisbatan 47.5 foizni, Xonobod, Asaka, Buloqboshi, Bo'z, Jalaquduq, Izboskan, Oltinko'l, Marhamat, Paxtaobod tumanlaridan uchtdan jami 27 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, jamiga nisbatan 27.3 foizni, Ho'jaobod tumanidan 4 ta murojaat kelib tushgan va jamiga nisbatan 4.0 foizni, Andijon tumanidan 6 ta murojaat kelib tushgan, jamiga nisbatan 6.1 foizni, Shahrixon tumanidan 9 ta murojaat kelib tushgan, jamiga nisbatan 9.1 foizni, boshqa viloyat hamda davlatlardan kelgan murojaatlar soni 4 tani tashkil etib, jamiga nisbatan 4.0 foizni tashkil etdi. Kelib tushgan barcha murojaatlar o'z vaqtida ijrochilarga yetkazilib va ijro uchun ma'sul shaxslar tomonidan belgilangan muddatlarda ijrolari ta'minlanib murojaatchilarga yetkazildi.